



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

TERMINLARNING IZOHLI LUG‘ATLARDA LUG‘AVIY VA TUSHUNCHAVIY JIHATDAN YORITILISHI

Amira IBATOVA*

Annotatsiya

O‘zbek tilshunosligida nonga oid terminlarining til leksik tizimidagi o‘rni aniqlash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, ulardagi variantlilik, ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik munosabatlariga oydinlik kiritish, leksikografik talqin qilish kabi vazifalar va tilshunoslikda til lug‘at tarkibining boyligini o‘rganishning ahamiyati, hamda biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug‘aviy mundariyasi aniq ta’riflangan, ishlatilishi ma’lum doira bilan cheklangan leksemalar, o‘zbek tilining izohli lug‘atida qo‘llanadigan nonga oid terminlar, tilning lug‘atini tuzish tamoyillari, har xil sohalarga tegishli sohalarini o‘rganish, tildagi so‘zlarning yasalishi ularning kelib chiqishi va amalda qo‘llanishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: izohli lug‘at, termin, leksema, variantlilik, ma’nodoshlik, ko‘p ma’nolilik, leksikografik talqin, struktur, semantik, derivatsion.

Presentation of Terms in the Explanatory Dictionary

Abstract

The article examines the role of Uzbek linguistics of bread terms in the lexical system of the language, the study of the semantic and structural structure, clarification of their variability, semantics, ambiguity, lexicographic interpretation and the importance of studying the richness of linguistic vocabulary in linguistics, as well as the concept of a profession or a field of lexeme, the use of which is limited in a certain range, the terms of bread used in the explanatory dictionary of the Uzbek language, the principles of compiling a dictionary of the language, the study of various areas, the formation of words in the language, their origin and practical application.

Keywords: explanatory dictionary, term, lexeme, variant, semantics, ambiguity, lexicographic interpretation, structure, semantics, derivation.

Kirish

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda termin vaunga doir muammolar, termin tushunchasi, terminning leksik-semantik va tarkibiy tuzilishi kabi masalalar tadqiqi yangi bosqichga ko‘tarilgan. Shu nuqtayi nazardan, barchatillardagi zamonaviy terminologiyada termin yasash va tanlash metodlari, ularning samarasi, yasalayotgan terminlarning adabiy til normalariga mos kelishi va faol qo‘llanishi, terminlarning

* Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, amirai batova1911@gmail.com

struktur qatlamlari yuzasidan zamonaviy aspektlarda tadqiqotlarolib borilishi kun tartibiga qo'yilmoqda. Bular o'z navbatida, tilshunoslikda non bilan bog'liq terminlarining struktur, semantik, derivatsion, mavzuiy, leksikografik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbek tilshunosligida nonga oid terminlarining til leksik tizimidagi o'rnini aniqlash, semantik-struktur tuzilishini tadqiq qilish, ulardagi variantlilik, ma'nodoshlik, ko'p ma'nolilik munosabatlarigaoydinlik kiritish, leksikografik talqin qilish kabi vazifalar tadqiqot dolzarbligini belgilab beradi. Leksikologiya tilshunoslikda til lug'at tarkibining boyligini o'rganish bilan shug'ullanadigan bo'limdir. Bu bo'lim umaman har bir tilning lug'at tarkibi shuningdek, so'zlarning shakli va ma'no munosabatlariga nisbatan turlari, so'zlarning paydo bo'lish yo'llari kabi qator muammolarni o'z ichiga oladi.

Leksikologiya, tildagi so'zlarning yasalishi ularning kelib chiqishi vaamalda qo'llanishini o'rganadigan fandır. Semasiologiya tildagi barcha birliklarni (so'z, so'z shakli, morfema, morfemika, so'z birikmalari, gap, frazeologizmlar) ma'no-mazmun tomonidan tadqiq qiladi. Leksikologiya va semasiologiyaning maqsadi bir bo'lib, ular tilning markazi bo'lgan so'zni o'rganishga qaratilgandır. Leksikologiya va semasiologiya bilan uzviy bo'lgan tilning lug'atini tuzish tamoyillari va har xil sohalarga tegishli sohalarini o'rganuvchi sohaga leksikografiya deyiladi. Odatda, leksikografiya umumiy va o'quv leksikografiya qismlarga bo'linadi. Umumiy leksikografiya barcha tillar uchun lug'at tuzish nazariy tamoyillari va metodlarini chuqur va atroflicha yoritib beradi. O'quv leksikografiyasi esa pedagogik va metodik qonun qoidalar nuqtayi nazaridan yondashgan holda lug'atlar tuzish masalalarini o'rganadi. O'z vazifalarining maqsadi va mazmuniga ko'ra o'quv lug'atlari bir necha turlarga bo'linadi: Izohli lug'at, terminologik lug'at, ensiklopedik lug'at, ikki tillik lug'at, morfem lug'at, ko'p tillik lug'at, qisqartmalar lug'ati, etimologik lug'at, omonimlar, sinonimlar lug'ati va hakovolar.

Leksik ma'no bilan tushunchaorasida tenglik termin leksemalarda bo'ladi (lotincha terminus – "chegara, chek"). Termin leksema notermin leksemadan o'z ma'nosining aniq ta'riflab, chegaralab, belgilab qo'yilganligi bilan farq qiladi. Shunga ko'ra termin, odatda, har vaqt ayni bir tushunchani anglatadi. Masalan, tilshunoslikdagi urg'u termini "havo oqimiga beriladigan zarb yordamida so'zning talaffuz jihatidan bir butunligini hosil etish usuli" tushunchasini anglatadi, adabiyotshunoslikdagi qofiya termini "she'r misralari oxirining tovush jihatidan bir xilligi" tushunchasini anglatadi. Odatda, har bir termin ma'lum birsohaniki bo'ladi.

Ammo shunday hollarham uchraydiki, bir leksema ayni vaqtda bir necha sohaning termini bo'lib ham xizmat qiladi. Biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, lug'aviy mundarijasi aniq ta'riflangan, ishlatilishi ma'lum doira bilan cheklangan leksemaga termin deyiladi. Biror kasb yoki soha terminlarining yig'indisi

shu kasb yoki sohaning terminologiyasi deyiladi. Barcha terminlar mohiyat jihatidan bir xil emas. Asosan, fan-texnika sohalarida ishlatiluvchi terminlardagina ular anglatadigan tushuncha aniq ta'riflanadi, bularning ishlatilish doirasi ham aniq cheklangan bo'ladi.

Metodologiya

Terminlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari murakkab tuzilishga ega. Bunda terminlarning stixiyali ravishda vujudga kelishi, umumiste'mol leksikadan farqli tarzda alohida shaxslar ijodi mahsuli ekanligi, mutaxassislarning termin hosil qilishda hodisalarning turli sohalaridagi o'xshashliklariga asoslanishlari ham muhim rol o'ynaydi. Terminologiyada universalisa, polisemiya, polifunksionallik va omonimiya hodisalari ko'p. Terminlarda kuzatiluvchi bu hodisalarni o'rganish terminshunoslik uchun qimmatli ma'lumotlar beradi.

Terminlardagi universalisa ularning bir necha sohada bir xil hodisalarni nomlashi asosida belgilanadi. Hodisalar birdan ortiq maxsus sohalar uchun universal bo'lganligi sababli ularni ifodalovchi terminlar ham universallik tabiatiga ega bo'ladi. Polisemantik terminlar birdan ortiq sememalari bilan bir sohada qo'llanadi. Bunday terminlarning sememalari orasidagi semik zanjir mustahkam. Shu bilan birga, ayrim polisemantik xarakterdagi umumiste'mol leksemalarning ba'zi sememalari terminologik mohiyatga ega. Bunday birliklarni leksema-terminlar deb atash mumkin. Polisemantik terminlarning hosila sememalari, shuningdek, polisemantik belgili umumiste'mol leksemalarning terminologik ma'nolari metaforik hamda vazifadoshlik asoslarda hosil bo'ladi.

Ma'lum bir sohaga oid so'zlar terminologik sistemani tashkil qilishi uchun: 1) salmoqli miqdorda bo'lishi; 2) umumiste'mol so'zlar va boshqa sistema terminlaridan (farq qiluvchi xususiy ma'nolarga ega bo'lishi va o'z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi; 3) ma'lum mavzuiy guruhlariga birikishi; 4) mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan turli (shakl va ma'no munosabatlariga kirishishi; 5) umumiy til sistemasi boshqa sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi; 6) soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy ettiruvchi usul hamda manbalarga ega bo'lishi lozim.

Ma'lumki, lug'at mustaqil o'qiladigan qo'llanmalarning biri bo'lib, u faqat birorta chet tilini o'rganishnigina emas, balki ona tilini o'rganishga ham yordam beradi. Har bir kishining so'z boyligi chegaralangan, shu sababli lug'atlar yordamida so'z boyligi oshiriladi va ma'lum maqsadlarga erishish mumkin.

“O'zbek tilining izohli lug'ati”da non bilan bog'liq terminlarining berilishi masalasiga ham munosabat bildirilgan. “O'zbek tilining izohli lug'ati”da qo'llangan nonga oid terminlarini ushbu sohaga dahldorlik darajasiga ko'ra qo'yidagicha tasniflash mumkin:

a) asosan nonvoychilikda, qisman boshqa sohalarda ham qo'llanuvchi terminlar;

b) nonvoychilikda ham, boshqa sohalarda ham baravar qo'llanuvchi terminlar;

v) asosan boshqa sohalarda, qisman nonvoychilikda qo'llanuvchi terminlar.

NON – (non; oziq-ovqat) 1. Xamirdan tayyorlanib, tandir, o'choq, tovada pishiriladigan yegulik. Masalan, bug'doy non, zog'ora non, shirmoy non, bo'lka non. Non yasab bo'lguncha, tandir qizidi. Keyin bir chekkadan yopdim. Oybek, Tanlangan asarlar. 2. Umuman, yegulik-ichgulik, yashash, tirikchilik uchun zarur narsa. Masalan, Matqovul aka, men non toparmikanman, deb qorin g'amida maktab ochganim yo'q, – dedi u bosig'i bilan. 3. Non gadoyi – nonga zor, kambag'al-qashshoq. U yo o'z-o'zini o'ldirardi, yo xizmatkor yigit bilan bir yurtga qochib, kambag'allikda, non gadoyi bo'lib yashardi. Oybek, Tanlangan asarlar. 4. Non yemoq biror narsadan foydalanib tirikchilik o'tkazmoq, kun kechirmoq. Doim hovli, yer janjalidan non yeb yuradigan bir ellikboshi, afandining yo'lini to'sib, ko'rgan tushini aytib berdi. "Latifalar". 5. Non sindirish (yoki ushatish) etnografiya. Nikoh to'yi marosimlarining bir qismi: qiz tomon, ya'ni uning ota-onalari sovchi yuborgan tomonga o'z roziligini bergach, sovchilar keltirgan dasturxon ochilib, shurozilik belgisi sifatida nonsindirilishi va to'y bilan bog'liq masalalarning belgilanishi, hal qilinishidir. 6. Noni butun-tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo'q, bekam-ko'st, to'kisligidir. Masalan, Sartarosh u dunyo, bu dunyo xor bo'lmaydi. Hamma vaqt noni butun. 7. Noni yarimta-biror sherik yoki raqobatchi tufayli topish-tutishi kamaygan, yetishmay qolganlikdir. Masalan, Nima, Qobilov kelib, nonimiz yarimta bo'lib qoldimi, aksincha, qo'lni-qo'lga berib ishlasangiz, bitta noningiz ikkita bo'ladi. 8. Nonini tuya qilmoq – birovga tegishli haqning ma'lum qismini olmoq, o'zlashtirmoq. Masalan: "Bo'shanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq", – o'yladi Yo'lchi. Oybek, Tanlangan asarlar.

NON-NAMAK (non-tuz; mehmondo'stlik) 1. Rizq-ro'z, nasiba, ulush, hissa. 2. Yeyishlik-ichishlik narsa, ovqat. Mirhosil jinnixonaga uzoq qatnadi. U har gal shaharga tushganda, non-namak olib, o'sha yerga intilar, La'lining tuzalshiidan umidvor bo'lar.. edi. H.G'ulom, Mash'al. 2. Non-namak bo'lmoq-suhbatda bo'lmoq, birgalikda ovqatlanmoq; biror o'tirishda, mehmonda birga bo'lmoq. Sodiqjon aka bilan biz bir necha bor non-namak bo'lganmiz. U kishi davraning guli. Gazetadan.

NONXUR – (non yeyuvchi, boqimonda) 1. Nonni yaxshi ko'radigan, ko'p non yeydigan. Xudoyo, rahmatingdan o'rgilay, oshxo'rga osh, non xo'rga non yetkizursan. Hamza, Maysaraning ishi. 2. Biroroila boshlig'ining ta'minotida, qaramog'ida bo'lgan kishi; xo'randa, jon. (Narzi tog'a) Endi oltita nonxo'rdan iborat jo'ja birday ro'zg'orining joni uchun o'z ajalidan bir qo'rqsa, dovyurak xamrohining joni uchun ming karra qo'rqadi. Sh.Toshmatov, Erk qushi. 3. Ko'chma nafr.

Tekintomoq, tekinxo‘r. O‘z uyida bir non xo‘r ortishi maxdumga, albatta, yoqmas edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon(Ўзбек тилининг изоҳли луғати., 2020. Б. 57.)

Muhokama

Tillarning etnik va hududiy xilma-xilligi doimo tadqiqotchilarni qiziqtirib kelgan. Chunki har bir mintaqa o‘z tarixi, etnik va geosiyosiy xususiyati bilan ajralib turadi. Xalq dialektlari an‘anaviy madaniyatning muhim bir qatlamining akkumulyatoridir, shuning uchun milliylik madaniy jihatdan muhim tushunchalarni bilishni o‘z ichiga oladi.

An‘analarning eng katta barqarorligi va mustahkamligi butun bir sistemani tashkil qilgan inson va uning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan oziq-ovqatga xos leksemalarning tarixiy, etnografik hamda til xususiyatlari majmuyini o‘z ichiga olgan ma‘lumotlar manbayi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, har qanday tilning lug‘at tarkibi bir sistemani tashkil etgan holda uning tabiatiga xos ma‘lumotlarini saqlash va to‘plashda muhim ahamiyatga ega.

Lug‘atlar adabiy tildan farqli o‘laroq, oddiy xalq lug‘at boyligiga xos tajribani umumlashtiradi va shu bilan xalqning madaniy an‘analarini mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi(Ирискулов, 2009, 80-б.). Lug‘atlarda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, xalq hayotining turli jihatlariga bo‘lgan munosabatini tiklash mumkin, ammo bu holatni hozirgi bosqichda aniqlashning imkoni yo‘q.

Xalqning ma‘naviy va moddiy madaniyatini qayta tiklash, dialektal lug‘atlarda inson hayoti va uni aks ettiradigan semantik tavsiflar orqali hodisa va narsalarning obyektiv manzarasi tasvirlanadi.

V.G.Kalitkina dialektal lug‘atni o‘rganish aspektlarida quyidagi darajalar alohida mavjudligini qayd etadi:

- leksik daraja, dialekt so‘zining semantikasi va milliy mentalitet bilan bog‘liq umumiy madaniyat qolipining mahalliy xususiyatlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi;
- haqiqatning ma‘naviy bilimlar vositasi sifatida og‘zaki an‘analarning tarkibiy qismi bo‘lgan va xalq nutq madaniyatini aks ettiruvchi matn darajasi (Калиткина, 2002, 544-бет).

Dialektal lug‘atlarning o‘ziga xosligi jonli matnlardan tashkil topganligi bois ularni tushunishga oid materialning mavjudligi shevaga xos xususiyatlarni o‘zida namoyon etuvchilarining ovozlari miqdori bo‘yicha “madaniy qolipning stereoskopik talqinini” shakllantirishga imkon beruvchi kundalik sheva nutqidir.

G.V.Kalitkina ta’kidlaganidek, dialekt lug‘atlar an‘anaviy tarzda o‘ziga xos etnos madaniyatini aniqlash uchun eng maqbul va atrofda qilarning e’tiroziga imkon qoldirmaslikka xizmat qiluvchi yo‘l edi(Калиткина, 2002, 544-бет).

Dialektologik lug‘atlarda non konsepsiyasi bilan bog‘liq jarayonlarni tadqiq etish jarayonida ularning o‘ziga xos semantik maydonini tashkil etuvchi sistema

ekanligiga amin bo'ldik. Chunki o'zbek tilining dialektologik lug'atida non tushunchasi bilan bog'liq leksemalar oziq-ovqat mahsulotlarini ifodalovchi nominativ birliklar bilan chambarchas bog'liqdir.

Xulosa

O'z navbatida, non makromaydoni metall, inson, buyum, sabzavot singari mikromaydonlari bilan paradigmatic aloqaga kirishadi. Ya'ni ular bitta uya (non mikromaydoniga)ga xos bo'lib, bir-biri bilan uyadoshlik mikromaydoniga kirisha oladi. Bundan tahlil etilayotgan leksemalarni bitta mikromaydonga birlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qilayotgan umumiy ma'no shu maydonga mansub bo'lgan barcha mikromaydonlarga taalluqli bo'lishi talab etiladi.

Mavjud bo'lgan har qanday lug'at axborot tizimi sifatida dolzarb va memorial tabiatning ma'lumotlarini saqlash va to'plashda muhim ahamiyatga ega. Adabiy til lug'atlaridan farqli o'laroq, o'zbek dialektal lug'atlarida non bilan bog'liq lug'aviy birliklar umumlashtiradi va shu bilan madaniy xalq an'analarini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Lug'atlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra xalqning hayotning turli jihatlariga bo'lgan munosabatini tiklash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Irisqulov M.T. (2009) *Tilshunoslikka kirish*. Toshkent.
- Калиткина, Г.В. (2002) *Диалектные словари как отражение традиционной культуры* / Г.В. Калиткина // Язык. Время. Личность: Материалы Международной научной конференции / под ред. Л.О. Бутаковой. Омск,.
- Nurmonov A., Iskandarova Sh. (2007). *Umumiy tilshunoslik*. G'ofur G'ulom.
- Ожигов С.И. (1975) *Словарь русского языка/под ред. Н.Ю.Шведовой.*– М.: Русский язык.
- Rasulov R. (2010) *Umumiy tilshunoslik*. Toshkent.
- Соссюр Ф. де, (1977) *Труды по общему языкознанию*. – М.: Прогресс.
- Хо'jayev A., Nurmonov A., Zaynobitdinov S. va boshq.(2001) *Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarning izohli lug'ati*. Sard.
- Hojiyev A. (2002), *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. Toshkent.
- Yo'ldoshev I., Muhamedova S., Sharipova O'., Madjidova R. (2013). *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent.